



BIR OBRAZNING IKKI XIL TALQINI

Xalova Maftuna Abdusalamovna

*Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
(DSc)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbekning ikki iste'dodli shoirlari Rauf Parfi va Muhammad Alilarning Viktor Xaraga bag'ishlangan she'rlari qiyosan tahlilga tortiladi. Tahlil jarayonida shoirlarning bir obrazga bo'lgan ikki xil munosabati go'zal tashbehlar orqali o'z ifodasini topadi.

Kalit so'zlar: lirik kechinma, lirik qahramon, munosabat, tashbeh, qiyosiy tahlil, talqin.

R.Parfi zamonaviy she'riyatni yangi pog'onaga ko'tara olgan shoir. Uning o'ziga xos poetik mushohada uslubi she'riyatimizda alohida ijodiy maktab darajasiga ko'tarildi va bugun o'ziga xos yo'nalishning paydo bo'lishiga, o'zbek she'riyatida moderncha uslubning yaralishiga zamin tayyorladi. Shoirning tuyg'ulari qanchalik tiniq bo'lsa, shunchalik dardlidir. Bu dard shoirning insonga bo'lgan, uning erkiga bo'lgan munosabatidir. Shoirning she'rlarida tabiat tasviri, Vatan madhi falsafiy mushohadalar bilan go'zal tasvirlanadiki, bu timsollarning o'xshashi yo'q.

Hassos shoirning qariyb barcha she'rlarida inson erki, ozodlik kuylanadi va shu erkka tajovuz solayotganlarga nafrat sezilib turadi. Masalan, "Viktor Xaraning so'nggi qo'shig'i" nomli she'ri barchamizga ma'lum. Xuddi shunday Viktor Xara hayot yo'liga bag'ishlangan yana bir she'ri iste'dodli shoir Muhammad Ali ijodida ham uchraydi. Muhammad Ali qalamiga mansub she'r "Chili shoiri Viktor Xaraning yoriga maktub" deb nomlanadi. Ma'lumki, Chilining qo'shiqchi shoiri Viktor Xara Avgusto Pinochet boshchiligidagi Xunta tomonidan Santyagoning markaziy stadionlaridan birida, ozodlik qo'shig'i, erk gimnini kuylagani uchun, o'zining qasoskor she'rlari tufayli besh ming mahbus oldida panjalari, so'ng qo'llari kesib o'ldirilgan. R.Parfi shu voqeani o'z she'riga to'laligicha kiritadi. Shoir Muhammad Ali esa lirik qahramon – Viktor Xaraning tilidan yoriga xitob va kechinmalarni o'z she'riga olib kiradi. Rauf Parfi ozodlik uchun kurashchi qahramon obrazini shakllantirishda modernistik she'riyat uslubidan foydalandi. Asosiy ma'no tashuvchi psixologik detallarni obrazli mantiq talabiga ko'ra joylashtiradi. Ular kechinma yo'nalishidagi burilish nuqtalariga aylanadi. Muhammad Ali esa she'rida barmoq vazni imkoniyatlaridan foydalanib, Viktor Xara kechinmalarini keskin drammatizm tarzida beradi. Rauf Parfining ozodlik uchun kurashchi obrazini tasviri quyidagi misralar bilan boshlanadi:



Oh, so'nggi qo'shiqni kuylamoq bunchalar qiyin,
Viktor Xaraning ko'zlari o'ngida
Uning suyuk ona-Vatanini –
Yetti torli muqaddas sozini sindirdilar.
So'ng uning sarbast qo'shiqlariga
jo'rovoz barmoqlarini kesib olishdi.
Bir emas,
Ikki emas,
Uch emas...
Uning o'n farzandini –
Barmoqlarini so'ydi jallodlar,
O'zing yaratdingmi shularni, Tangrim!³⁸

Ushbu she'rning izhori epik uslubga yaqin, ya'ni roviy rivoyatidek taassurot qoldiradi. Biroq tasdiq, inkor, takror, xitob, fojia holatining lakonik tasviri uni lirika qonuniyatlariga bo'ysundirmoqda.

She'r davomida og'ir o'y-kechinmalar “So'nggi qo'shiqni kuylash bunchalar qiyin”, “Og'ir, ko'p og'ir”, “Og'ir naqadar”, “Naqadar og'ir” tarzidagi takrorlarga ulanib, Viktor Xaraning ruhiy holati va matonatidan, undagi e'tiqodga bo'lgan komil ishonchdan o'quvchini ogoh qilib turadi. Bu ajoyib, psixologik takror she'r tugallanmasida shoirni:

Oh, so'nggi qo'shiqni...
Kuylamoq...
Zarur

qabilidagi yakunga yetaklaydi. R.Parfi ijodida bunday mahorat bilan yozilgan she'rlar ko'plab uchraydi. Umuman olganda, Rauf Parfi she'rlari insonning murakkab tabiati, beqaror o'zligidan bahs etadi. Teranroq nazar tashlansa shoirning bu she'rda inson “men”ining kashfini ko'rish mumkin.

Muhammad Ali esa Rauf Parfi singari murakkab lirik qonuniyalardan foydalanmasdan, sodda usuldan, shuning bilan birga she'r davomida musiqiylikni yo'qotmagan holda Viktor Xara tilidan lirik tuyg'ularni bayon etadi. Viktor Xara yoriga qaddini tik tutishi lozimligini, mag'rur bo'lishi kerakligini o'z fojiasi oldidan ta'kidlaydi:

“O Chili dilbari! Qaddingni tik tut,
Behuda oqmasin ko'zlaringda yosh.
Endi fidoyilik samarini kut,
Endi kulfatga ham topa ol bardosh,

³⁸ Рауф Парфи. “Туркистон руҳи”. Сайланма. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Вафо Файзуллоҳ. – Тошкент: Шарқ, 2013. – Б.154.



Topa ol bardosh.

Erk deya jon bermoq baxtdir har qachon!
Mard yoring shaxtidan ellar hayratda.
Azaliy udum shul: kimki chin inson,
Nurafshon o'limni izlar albatta,
Izlar albatta.

She'r davomida lirik qahramonning fidoyiligi, qahramonligi, vatanparvarligi tarannum etiladi. Erk uchun, Vatan uchun jon berayotgan qahramonning seviklisi doimo qaddini tik tutib yurmog'i, Vatan uchun jon bermoqlik sharaf ekanligi Viktor Xara tomonidan yoriga xitob tarzida yangraydi:

Oh, ayol boshigga g'am ortdi taqdir!
Yo'q, muhtoj emassan sen himoyaga.
Sharafli kuychingning o'limi axir
Xamirturush bo'ldi buyuk g'oyaga.
Buyuk g'oyaga!"³⁹

Bu misralarda Viktor Xaraning *"Oh, ayol boshigga g'am ortdi taqdir!"* deb yoriga biroz achinishi tasvirlanadi-yu, lekin Vatanining erki va ozodligi uchun o'z jonini tikkanligi va bundan afsus etmasligi *"Sharafli kuychingning o'limi axir xamirturush bo'ldi buyuk g'oyaga. Buyuk g'oyaga!"* tarzida, hatto o'z o'limidan ham faxrlanmog'ini yoriga ta'kidlaydi. Chilining qo'shiqchi shoiri Viktor Xaraning matonati xalqini erkka, ozodlikka, jasoratga yetaklashi Muhammad Ali tomonidan mazmunli qilib tasvirlanadi. Shoirning poetik imkoniyatlari kengligi, holat-kechinmani lirik satrlar bag'riga singdira olishi she'rlarida yaqqol ko'rinadi.

Ozodlik uchun kurashgan bir qahramonning jasorati ikki ijodkor – Rauf Parfi va Muhammad Ali qalamida ikki xil jilo bilan kitobxonni o'ziga maftun etadi. Ikki ijodkorning ikki xil lirik kechinmalarini kitobxonni Vatanni sevishga, uni asrashga chorlaydi. Erkinlikning, ozodlikning qadriga yetishga chaqiradi.

ADABIYOTLAR

1. Мухаммад Али. Сайланма. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт – матбаа концернининг бош таҳририяти, 1997. – 166 б.
2. Рауф Парфи. "Туркистон руҳи". Сайланма. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Вафо Файзуллоҳ. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 154 б.
3. Қ.Йўлдошев. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 545 б.

³⁹ Мухаммад Али. Сайланма. Т.: "Шарқ" нашриёт – матбаа концернининг бош таҳририяти, 1997, 166-б.



4. Н.Жабборов. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 303 б.